


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60112400—Professional ta’lim (*Yer kadastrovi va yer tuzish*)
bakalavriat ta’lim yunalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «7»
09 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|--------|---|-----|
| 1. | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi..... | 4 |
| 1.1. | Qo‘llanish sohasi..... | 4 |
| 1.1.1. | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi..... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi..... | 4 |
| 1.2.1. | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari..... | 4 |
| 1.2.2. | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining ob’ektlari..... | 5 |
| 1.2.3. | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari..... | 5 |
| 1.2.4. | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlearning kasbiy vazifalari..... | 5 |
| 2. | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlearning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar..... | 7 |
| 2.1. | Umumi kompetensiyalar..... | 7 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar..... | 7 |
| 2.3. | Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallahni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar..... | 8 |
| 2.3.1 | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar | 8 |
| 2.3.2 | 60112400—Professional ta’lim (<i>Yer kadastro va yer tuzish</i>) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi | 9 |
| 2.4. | Kvalifikatsiyalar..... | 9 |
| | Bibliografik ma’lumotlar..... | 10 |
| | Kelishuv varagi..... | 11 |
| | Kelishuv dalolatnomasi..... | 12 |

1. 60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastro va yer tuzish*) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastro va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastro va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.

Malaka talabi 60813100 – *Yer kadastro va yer tuzish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yunalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor – o‘qituvchilari;

- ta’lim yunalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastro va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastro va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.

60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastro va yer tuzish*) – “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida foydalaniladigan yer resurslari, ularning yer fondi toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, “Kadastr” agentligi infratuzilmasi va korxonalar, yer kadastro va yerdan foydalanish sohasi bo‘yicha ilmiy loyihalash va tadqiqot muassasalari, yerdan foydalanish, yer egaliklari, yerdan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish hamda holatini nazorat qilish va boshqarish; ko‘chmas mulk ob‘ektlari, shu jumladan shaharlar va aholi yashash punktlari chegarasidagi yer uchaskalar, ularning huquqiy holati, davlat ro‘yxatiga olinishi, baholanishi, foydalanishini nazorat qilish; kadastr axborot tizimlari; loyiha - texnik hujjatlari kabi kasbiy faoliyatning vositalari, usul va uslublari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

- Professional ta’lim tizimi jarayonini tashkillashtirish, ishlab chiqarish va kompleks masalalarni echish bilan bog‘lik kasbiy ko‘nikmaga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining vositalari, usullari, uslublari va yo‘llari majmuini qamrab oladi. SHuningdek, ta’lim yo‘nalishi - kasb ta’limini o‘qitish jarayonini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlik darajalari, kasb ta’limi

o‘qituvchisining pedagogik va texnologik tayyorgarligi, texnik texnologiyalar va vositalardan foydalanish mahorati, kasb ta’limi bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish, loyixalash, nazorat qilish, ishlab chiqarish va pedagogik masalalarni echish bilan bog‘lik kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lish, shuningdek, ta’lim vositalari, metodlari, uslublari, shakllari va tamoyillarini tashkil etadi.

Yunalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat ob‘ektlarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.2. 60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastrori va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob‘ektlari.

- yerdan foydalanuvchilar va yer egaliklarini tashkil etish;
- yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olish;
- yerlarning miqdor va sifat hisobini yuritish;
- tuproq bonitirovkasi va erlearning normativ-me’yoriy qiymatini aniqlash;
- yerdan foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazorati;
- yer kadastro axborot tizimini yaratish va yuritish;
- yer ajratish, hududni tashkil qilish va kompleks rivojlantirish bilan bog‘liq loyiha - texnik hujjatlarini tayyorlash jarayonlari.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat ob‘ektlarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘srimcha va o‘zgarishlar muayyan talim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastrori va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastrori va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-konstrukturlik faoliyati;
- ekspluatatsion va texnik servis faoliyati;
- texnologik-ishlab chiqarish faoliyati.
- *pedagogik (professional ta’lim tizimida) va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.*

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta’lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan xamkorlikda oliy ta’lim muassasasi tomonidan aniklanadi.

1.2.4. 60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastrori va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.

60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastrori va yer tuzish*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofik bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- yer kadastrori va yerdan foydalanish sohasida texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;
- ishlab chiqarishda hayot faoliyati havfsizligi bo'yicha mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayoni monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- kasbga oid muammolar echimini amaliyotga tatbiq qilish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar turli xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanish;
- ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minotlar, kompyutyer texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda yer resurslaridan foydalanish, ularni baholash, muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish;
- eksperimental-loyihaviy tadqiqotlarni o'tkazishda namunaviy metodikalar va texnik vositalar hamda qurilmalarni qo'llay olish:
- yer kadastrori va yerdan foydalanish sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, xorijiy davlatlar va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rghanish;
- ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ishlanmalarni ishlab chiqishda qatnashish;
- mavzu(topshiriq) bo'yicha ilmiy texnik ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishni amalga oshirish;
- tadqiqot natijalarini ishlanmalarni tadbiq etishda qatnashish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalган holda qidirish va topish;
- ta'lim yo'naliшlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rghanish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

Ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlib chiqish va amalga oshirish.

Pedagogik faoliyatida (professional ta'lifi tizimida):

- professional ta'lif tizimining ta'lif muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha pedagogik fanlardan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy xamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazishda ko'maklashish, tadkikotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va taxlil etish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik xujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tadbik etish;
- mustakil ta'lif va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan xamda pedagogik faoliyat soxasidagi metodlar, vositlar va shakllar lavxalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish **qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.**

2. 60112400—Professional ta'lif (*Yer kadastro va yer tuzish*) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish xamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalanish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mexnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar

- me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni maqbullashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- strategik va operatsion boshqaruva vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga etakchilik qilishni bilish;
- yer kadastro va yer tuzish tarmoqlar talablarini qanoatlantiruvchi samarali hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etishni bilishi;
- yer monitoringini yuritish nazariyasi va texnologiyasi, ular to'g'risida umumiy tushuncha, uning mazmuni va vazifalari, yer monitoringining tarkibiy qismlari va bosqichlari haqida tasavvur hosil qilishi;
- yer monitoringi tizimi, amaliyotda qo'llanib kelinayotgan yo'riqnomalar, me'yoriy hujjatlar va uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish; yer egaliklari va yerdan foydalanishlar turlarini, ularni tashkiliy – iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini tanlash; geodeziya,

kartografiya va kadastr ishlarini samarali yuritish maqsadida yer monitoringi ma'lumotlarini olish, qayta ishlash va tahlil qilish usullarini; Yer monitoringini yuritishda zamonaviy axborat texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlashi;

- agrar ishlab chiqarishda yer resurslarining iqtisodiy samaradorligi, intensifikatsiyalash, qishloq xo'jalik korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish haqida tasavvur hosil qilishi;
- xo'jalikda tuziladigan yer tuzish loyihamalarida yer resurslaridan foydalanishni iqtisodiy asoslash, bozor va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari, agrar ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish va joylashtirishni bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashi;
- davlat yagona kadastrlari tizimi asoslarini, uning tarkibini va yuritishni bilishi;
- yer resurslarini boshqarish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashi;
- yeroziyaga xavfli hududlarda ladshaftli yer tuzish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. 60112400–Professional ta'lim (*Yer kadastrovi va yer tuzish*) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat | Ajratilgan kredit |
|--|--|-------------------|
| Majburiy fanlar | 4620 | 154 |
| Tanlov fanlar | 1650 | 55 |
| Malakaviy amaliyot | 720 | 24 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 210 | 7 |

2.3.2. 60112400–Professional ta’lim (*Yer kadastrovi va yer tuzish*) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Fan o‘tiladigan semestr |
|-------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|-------------------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 5230 | 175 | |
| 1.01 | XT1115 | Xorijiy til | 450 | 15 | 1,2,3 |
| 1.02 | MAT1115 | Oliy matematika | 450 | 15 | 1,2,3 |
| 1.03 | FIZ1105 | Fizika | 150 | 5 | 1 |
| 1.04 | OYT1104 | O‘zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | TIL1104 | O‘zbek (rus) tili | 120 | 4 | 2 |
| 1.06 | GEO1105 | Geodeziya | 150 | 5 | 2 |
| 1.07 | JTS1105 | Jismoni tarbiya va sport | 150 | 5 | 3 |
| 1.08 | DIN1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 3 |
| 1.09 | FAL2104 | Falsafa | 120 | 4 | 4 |
| 1.10 | PP2105 | Pedagogika. Psixologiya | 150 | 5 | 4 |
| 1.11 | DK2105 | Davlat kadastlari | 150 | 5 | 4 |
| 1.12 | TD2105 | Tuproqshunoslik va dehqonchilik | 150 | 5 | 5 |
| 1.13 | AT2105 | Axborot texnologiyalari | 150 | 5 | 5 |
| 1.14 | KP2105 | Kasbiy pedagogika | 150 | 5 | 5 |
| 1.15 | YRB2104 | Yer resurslarini boshqarish | 120 | 4 | 5 |
| 1.16 | YEK2106 | Yer kadastrovi | 150 | 5 | 6 |
| 1.17 | KPS2105 | Kasbiy psixologiya | 150 | 5 | 6 |
| 1.18 | YH3105 | Yer huquqi | 150 | 5 | 7 |
| 1.19 | YET3106 | Yer tuzish | 160 | 6 | 7 |
| 1.20 | PM3105 | Pedagogik mahorat | 150 | 5 | 7 |
| 1.21 | APK3105 | Aholi punkti yerkandi kadastrovi | 150 | 5 | 8 |
| 1.22 | TIM3105 | Tarbiyaviy ish metodikasi | 150 | 5 | 8 |
| 1.23 | YTL3105 | Yer tuzishni loyihalash | 150 | 5 | 8 |
| 1.24 | YFE3110 | Yerdan foydalanish ekologiyasi | 150 | 5 | 9 |
| 1.25 | TT3105 | Ta’lim texnologiyalari | 150 | 5 | 9 |
| 1.26 | JTT3105 | Jahon ta’lim tizimi | 150 | 5 | 9 |
| 1.27 | YEM4105 | Yer monitoringi | 150 | 5 | 10 |
| 1.28 | NXK4105 | Noqishloq xo‘jalik yerkandi kadastrovi | 150 | 5 | 10 |
| 1.29 | KTM4104 | Kasbiy ta’lim metodikasi | 120 | 4 | 10 |
| 1.30 | DYN4105 | Davlat yer nazorati | 150 | 5 | 11 |
| 1.31 | YTT4105 | Yer kadastrovi va yer tuzish ishlarni avtomatlashgan tizimlari | 150 | 5 | 11 |
| 1.32 | MFO4105 | Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi | 150 | 5 | 11 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 1020 | 34 | |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar (8 ta fan)</i> | 1020 | 34 | 4,6,7,8,9,10,11 |
| | | Jami | 6270 | 209 | |
| | | Malakaviy amaliyot | 720 | 24 | 5,6,8,9,12 |
| | | Yakuniy davlat attestatsiyasi | 210 | 7 | 12 |
| | | Jami | 930 | 29 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |

2.4. Kvalifikatsiya: yer kadastrovi va yer tuzish muhandisi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, yer tuzish, yer kadastro, yer monitoringi, yer huquqi, geodeziya, kompyutyer grafikasi, kartografiya, fotogrammetriya va masofadan zondlash, yer uchastkasi, yer resurslari, yer resurslari iqtisodi, yer tuzishni loyihalash, yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari, landshaftli yer tuzish, axborotlar taxlili, avtomatlashtirilgan tizimlar, xo'jaliklararo yer tuzish, xo'jalikda ichki yer tuzish, yer resurslaridan foydalanish, yer resurslarini boshqarish.